



**TALABALARDA IJTIMOIY DAXLDORLIK FAZILATLARINI  
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI**

**Abdullayev Sobirjon Soxib o'g'li**

*Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** Maqolada yoshlar faoliyati va jamiyat taraqqiyoti o'zaro bog'liqligi, talaba-yoshlar islohotlarning faol ishtirokchisi, demokratik jarayonlarni rivojlantiruvchi muhim omillardan biri ekanligi tahlil etilgan. Maqolada shuningdek, oliv ta'lif tizimidagi ta'lif-tarbiya jarayonida talabalarning ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, talabalar, ta'lif, yoshlar siyosati, ijtimoiy faoliyik, ta'lif isloxoatlari, vatanparvarlik tarbiyasi, e'tiqod, ideallar, fuqarolik jamiyat, ijtimoiy daxldorlik.

Bugungi kunda hukumatning yagona maqsadi insonparvar, fuqarolik jamiyatini barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rinn egallahsha yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarni ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'lifiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero yurting porloq istiqbolini yaratish, uning nomini keng yoyish, yurtni rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallahshini ta'minlash yosh avlodni yetuk kadr, malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga hamda ijtimoiy mas'uliyatni va daxldorlikni singdirishgaga bog'liqdir.

Mamlakatimizda talaba yoshlarning zamonaviy kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi, ularning har tomonlama kamol topishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar ularningbevosita erkinliklarini ham ta'minlaydi. Ushbu holatda talabalarning kasbiy, shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida ulardag'i daxldorlik hissini maqsadga muvofiq, tizimli rivojlantirib borish ularningpedagogik faoliyatini yanada takomillashtirib borishga imkon beradi. Bu esa talabalardagi daxldorlik hissini ta'liddagi samaradorlikni ta'minlash va davlatning beqaror rivojlanishida ta'lifning xal qiluvchi omil ekanligiga bog'liq xolatda tadqiq etilishi zarur bo'lgan muhim muammolardan ekanligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy daxlodrlik deganda – shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga ham jismonan va ham ma'nан mansubligi, uning yutuq va kamchiliklariga, yaxshi va yomon ishlariiga aloqadorligini anglatadi. Bu bizning mualliflik tarifimiz bo'lib,



# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



buni talabalarga nisbatan qo'llaganda, ularning o'zi mansub jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga masubligi, uning yutuq va kamchiliklariga aloqadorligiga va bu yo'lda o'zining mas'uliyatini namoyon qilishga qaratilgan fazilat hisoblanadi.

Talaba-yoshlarda ijtimoiy daxldorlikni rivojlantirish buzg'unchi g'oyalarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetning shakllanishi bilan ham bog'liq. Chunki daxldorlikni anglagan talabaning mafkuraviy himoyalanishi kuchli bo'ladi. Mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan talabaning esa ma'naviyati yanada yuksilib boradi. Sababi unga ma'naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar zarar yetkaza olmaydi. Talaba har qanday masalaning o'zi uchun muhim yoki nomuhim ekanligini anglashi, shunga mos ravishda ish tutishi undagi daxldorlik fazilatining qay darajada shakllanganini bildiradi. Zero, "yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari" safarbar etilmoqda.

Bugungi oliy ta'lif tizimi talabalarda faol fuqarolik va ijtimoiy dahldorlik fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan integrallashgan axborotlarni taqdim etishga alohida e'tibor qaratmog'i lozim. Mazkur jarayonda shakllantirilgan sifatlar, birinchi navbatda, talabalarning ijtimoiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi va ularni siyosiy faollikka undaydi. Rivojlanish tendensiyalari va rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashganlik, intellektual, ijtimoiy barqarorlik, tashabbuskorlik va faol fuqarolik dunyoqarashi kabi sifatlar bugungi talaba-yoshlarga xos bo'lishi lozim. Bu orqali ularda ijtimoiy daxldorlik dunyoqarashini shakllantirish va vatan uchun sadoqatli kadrlar sifatida tarbiyalash mumkin bo'ladi.

Talaba-yoshlarda ijtimoiy daxldorlik fazilatini shakllantirish o'ta mas'uliyatli vazifa bo'lib, bu ish bevosita tarbiyachilarimiz – professor-o'qituvchilardan o'ta yuksak pedagogik mahoratni, pedagogik etika va insoniy madaniyatni talab etadi. Qaysi fandan dars berishidan qat'iy nazar bugungi talaba oldiga kiradigan ma'ruzachi-pedagog o'z qarashlari, faniga munosabati, o'zbeklar tarixi va madaniyatini chuqur bilishi va e'tiqodi bilan bola shaxsiga ta'sir etish mas'uliyatini unutmasligi kerak.

Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif jarayonida va darslarda tashqari faoliyatlar samaradorligi asosida talabalarda daxldorlik tuyg'usi natijalari quyidagicha namoyon bo'ladi:

- talabalarda o'zligini anglashi sifatida namoyon bo'ladi;
- talabalarda jamiyat ishlariga mas'uliyat, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash istagi sifatida namoyon bo'ladi;
- talabalarda turli tahdidlardan himoyalanish quvvati sifatida namoyon bo'ladi;
- talabalarda korrupsiyaga murosasiz munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi;



-talabalarda burch va mas'uliyatni ongli anglashga va uni sidqidildan bajarishga yo'naltiradi;

-bo'lajak pedagoglarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini talab darajasida shakllantirishga hizmat qiladi;

-talabalarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga yordam beradi.

Xulosa qilganda, talabalarda ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillarini to'g'ri tahlil etish, mavjud vaziyatga ratsional baho berish va istiqboldagi vazifalarni mavjud muammolarni bartaraf etishning qaratish dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi. Shu bois jamiyatda talaba-yoshlarni ijtimoiy daxldorlik va mas'uliyatlilikka yo'naltirish muhim ijtimoiy talab hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Fayziev I. Sh. Formation of civil society through participation education.// "Science and Education" Scientific Journal. October 2020 / Volume 1 Issue
2. Mirziyoev Sh.M. We will build our great future together with our brave and noble people. - T.: Uzbekistan, 2017.
3. Fayziev I.Sh. Formation of civil society through participation education. // "Science and Education" Scientific Journal. October 2020 / Volume 1 Issue
4. Fayziev I.Sh. Formation of civil society through participation education. // "Science and Education" Scientific Journal. October 2020 / Volume 1 Issue
5. Shermanov E.U. Development of the virtue of involvement in reforms in teenagers. Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation in Pedagogical Sciences. - Samarkand, 2020.
6. Akhmedov T. Society and man: relevance and growth factors //Archiv Nauchnix Publikasiy JSPI. - 2020.
7. Abdullaev, S. A. (2022). DISTRIBUTION OF THE NUMBER OF FAULTS AND TIME OF RESTORATION OF ELEMENTS OF SEWER NETWORKS. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 512-519.
8. B. S. Siddiqov, & Sh. N. Mexmonaliyev (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI. Academic research in educational sciences, 3 (1), 10-16. doi: 10.24412/2181-1385-2022-1-10-16
9. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 537-544.
10. Maksudov, U. K. (2023). SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE PROMOTION OF STUDENT-YOUTH INITIATIVES BASED ON THE

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



GENDER APPROACH. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(3), 688-693.

11. Maqsudov, U. Q. (2020). Stages and forms of development of social activity of primary school students through people's oral creativity. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(12), 1365-1368.
12. Muhammadjonovna, U. N., Makhmutovna, T. H., & Kurbonovich, M. U. (2020). IPROVING THE MECHANISM OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF A DEMOCRATIC AND LEGAL SOCIETY. *JCR*, 7(12), 3133-3139.
13. Mukhammedovna, U. N., & Oyturaxonovna, I. S. (2019). IMPROVING SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH IN UZBEKISTAN AS THE DEMOCRACY AND DEVELOPMENT OF LEGAL SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
14. qizi Tursunova, D. T. (2021). Principal And Important Factors In The Formation Of Social Activity Student Women. *Current Research Journal Of Pedagogics*, 2(05), 53-62.
15. Siddiqov, B. S., & Mexmonaliyev, S. N. (2022). PEDAGOGIK AMALIYOTNING BO 'LAJAK O 'QITUVCHINING KASBIY TAYYORGARLIK FAOLIYATIDA TUTGAN O 'RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 10-16.
16. Sobirjon, A. (2020). Socio-pedagogical factors of formation of activities of society and social involvement in students who have an active life position. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(12).
17. Tursunova, D. (2021, December). THE CONCEPT OF SOCIAL ACTIVITY AND ITS IMPORTANCE IN SOCIAL DEVELOPMENT. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 84-87).
18. Tursunova, D. (2022). FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF SOCIAL ACTIVTY. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 285-289.
19. Tursunova, D. (2022). PUBLIC ACTIVITIES AND ITS PERSONS. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 127-130.
20. Tursunova, D. T., Abobakirova, O. N., Buzrukova, D. M., Mahmudova, O. T., Ubaydullayeva, Z. H., & Kholmatova, N. N. (2022). Principal Principles And Important Factors Of Student Women's Social Activity. *Journal of Positive School Psychology*, 6262-6269.
21. ugli Abdullaev, S. S. (2021). SOCIAL INVOLVEMENT IN STUDENTS RESULTS OF EXPERIMENTAL WORK ON THE DEVELOPMENT OF VIRTUES.



# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



22. ugli Abdullaev, S. S. (2021, July). SOCIO-POLITICAL FACTORS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL RELATIONSHIPS IN STUDENTS IN THE PROCESS OF PEDAGOGICAL EDUCATION. In *Euro-Asia Conferences* (pp. 168-170).
23. Urinova, N. M. (2018). Developing and Promoting Students' Social Activity. *Eastern European Scientific Journal*, (6).
24. Urinova, N. SOCIAL EDUCATION OF STUDENTS AS AN IMPORTANT COMPONENT OF TEACHING ACTIVITIES.
25. Джалалов, Б. Б. (2016). Место и роль воздействия воспитания в повышении общественной активности учащихся. *Ученый XXI века*, (5-1 (18)), 38-41.
26. Джалалов, Б. Б. (2020). Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишнинг назарий методологик асослари. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 10(3).
27. Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). Задачи развития активности молодёжи с помощью педагогических тренингов. *Ученый XXI века*, (6-2).
28. Уринова, Н. М. (2018). Таджибоева ХМ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS OF PHILOSOPHY, SOCIOLOGY, HISTORY AND POLITICAL SCIENCE*, 29-33.
29. Уринова, Н. М., & Таджибоева, Х. М. (2018). Педагогические основы развития социальной активности учащейся молодежи. In *international scientific review of the problems of philosophy, sociology, history and political science* (pp. 29-33).